

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrası

2-bosqich Teatrshunoslik guruhi talabasi
Ashurova Mahfuzaning

“Teatrshunoslik” fanidan tayyorlagan
KURS ISHI

Mavzu: Pyesa va spektakl mushtarakligi va tafovutlari. Sharof Boshbekovning
“Eski shahar gavrohlari” asari misolida.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek bizning milliy teatr san’atimiz tarixan juda katta yo’lni bosib o’tgan. Teatrlarimizning bugungi holati, ulardagi jarayonlar esa asrlik mehnatlarning samarasi deyishimiz mumkin. Hayotimiz davomida hammamiz teatrga borganmiz va turli mavzudagi spektakllarning guvohiga aylanganmiz. Hech o’ylab ko’rganmisiz ana shu ko’rgan spektaklimizning asar yani pyesa holatidan qanday farqi bor? Bazilar uning muallifi mashhur bo’lgani uchun bilishsa, bazilar qiziqqanidan, bazilarning sohasi shuni talab qilganligi uchun spektaklning kitob holatini ham o’qib chiqishgan. Bugun biz fikr yuritmoqchi bo’lgan mavzuyimiz aynan shu haqida. Ya’ni pyesa bilan spektakllar qay jihatdan bir-biriga o’xshash va ular orasidagi tafovutlar haqida. Avvalo bu so’zlarning o’zi qanday ma’nolarni anglatishi haqida to’xtalib o’tsak. Tafovut so’zi arabchadan olingan bo’lib, ayirma, farq, ixtilof degan ma’nolarni anglatadi. Narsa, hodisa va ular orasidagi noo’xshashlik, faqli jihatlarni ko’rsatishga xizmat qiladi. Mushtarak esa, arabchadan kirib kelgan so’z bo’lib, umumiy, birlashgan, o’rtadagi kabi ma’nolarning umumlashmasidir. Farqli va o’xshash jihatlarni esa xalqimiz orasida o’zinig yaratgan asarlari-yu, kinosenariylari bilan e’tibor qozongan Sharof Boshbekovning “Eski shahar gavrohlari” asari misolida ko’rib chiqamiz. Har qanday sahna asarini tahlil qilishdan avval muallif haqida qisqacha to’xtalib o’tish joiz. Sharof Boshbekovning hayotiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo’lsak bu inson san’at olamiga dastlab aktyor sifatida kirib kelgan. Olim Xo’jayev nomidagi Sirdaryo teatrida, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida faoliyat yuritgan. Birinchi musiqali spektakllardan biri sanalgan “Nurxon” spektaklida Mamat rolini mahotrat bilan ijro etgan. Adabiyot sohasida dastlab, “G-varianti”, “Jumboq”, “G’urur” kabi hikoyalar yozadi. Keyinchalik dramatik asarlar yaratishga bel bog’laydi va bir-biridan ajoyib asarlar yaratadi. Shularga misol qilib, “Eshik qoqqan kim bo’ldi”, “Taqdir eshigi”, “Tushov uzgan tulporlar”, “Eski shahar gavrohlari” kabi mashhur asarlarni aytishimiz mumkin. Sharof Boshbekov

sahna asarlari bilan bir qatorda kinosenariylar yozadi va ularning bir qanchasiga o'zi rejissorlik qiladi. Bularga “Temir xotin”, “Yuzsiz”, “Tilla bola”, “Doka ro'molning qurishi”, “Charxpalak”, “O'yin” kabilarni misol qilishimiz mumkin. Fikr yuritmoqchi bo'lganimiz “Eski shahar gavroshlari” asari ko'pchilikning e'tirofiga va san'at ixlosmandlarining e'tiboriga sazovor bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Spektakl tahlili haqida so'z yuritishdan avval pyesa bilan yaxshi tanish bo'lishimiz kerak. Sababi, har qanday spektaklning asosi bu pyesadir. Muallif bu asari 1988-yilda yozilgan bo'lib, bugungi kunga qadar o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Bu asar o'zimni ham befarq qoldirmaganligi bois, asarga qayta-qayta murojaat qilaman. Asarning aynan yoshlar hayotiga bag'ishlanganligi ham e'tiborni tortuvchi jihat deb o'ylayman. Bu borada yurtboshimizning biz yoshlar ruhiyatini yanada ko'taradigan ushbu misralarni esga olmoqchiman “Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart”. Asarda aynan ertaning egalari bosh qahramon qilib olingan. Bir so'z bilan aytganda asar yoshlarni kelajakka tayyorlash haqida. Pyesaning sahnaviy talqinlari bilan so'zimizni davom etiramiz. Mavzudan kelib chiqqan holda pyesani ham, u asosida yaratildan spektaklni ham tahlil qilib boramiz. Asar dastlab Respublika yosh tomoshabinlar teatrida 1989–yilda “ Eski juva gavroshlari ” nomi bilan sahna yuzini ko'rgan. Asarning bu variantida asosan 14,15 –yoshli o'smirlar hayoti yoritib berilgan. Bu asar teatr repertuarida o'ziga xos burilish yasaganligi e'tirof etilgan. Ho'sh uning asar holidan qanday farqi bor-u qay jihatlari saqlanib qolgan? Ko'pgina bolalarga bag'ishlangan spektakllarda bolalarning taqdiri yoritilish o'rniga ota-onalarga qarata qilingannasixatdek bo'lib qolar edi. Bu talqinda esa, Hasan, Husan, Odil, Mehri kabi bolalar orqali atrofda jo'sh urib turgan hayotga murojaat qilingan. Bolalarning hayqiriqlari hayotning nechog'lik shiddatkor ekanligiga ishoradek yangraydi. Bundan tashqari bu asar “O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti” da ham sahna yuzini ko'rgan. Asarni “O'zbekitonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi”, ko'pgina spektakllarning rejissori Munavvara Abdullayeva tomonidan sahnalashtirilgan. Bu talqinda “dramatik teatr va kino aktyorligi” yo'nalishi bitiruvchi talabalari tomonidan sahnaga qo'yilgan. Bu spektakl o'zining tomoshabillariga institut sahnasi bilan bir qatorda, ko'pgina viloyatlarda ham taqdim etilgan. Har ikkala spektaklni ham pyesa bilan farqli va o'xshash jihatlari ko'zga tashlanadi. Birinchi navbatda asarning nomiga to'xtaladigan bo'lsak uch holatda ham deyarli bir xil faqat, shahar, juva nomlari bilan bir-biridan farq qiladi. Har uchchala holatda ham eski shahar yani Toshkentning qadimiy ko'chalaridan biri hisoblangan chorsu haqida gap boradi. Asarning qahramonlari esa ana shu ko'chaning siz-u bizga o'xshagan yoshlari. Asarning mavzusi esa o'smir yoshlar haqida. Yuqorida ta'kidlab o'tgan spektakl variatlarida ham mavzu saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Umumiy qilib oladigan bo'lsak jamiyat va shaxs munosabatlari haqida. Ana shu munosabatlarning uyg'unligi spektaklga ham ko'chgan deya olamiz. Asarning g'oyasi bolalarning o'smirlik davrida ota-onalar, o'qituvchilar, atrofdagi boshqa kishilar ularga yanada jiddiyroq va ma'suliyatliroq qarashlari lozim degan fikrlarni ilgari surgan. Asarda ham spektaklda ham kirish qismi ya'ni o'smirlarning kasalxona qarshisida turgancha "kimga non, issiqina nonlar bor" deya hayqirishlari tomoshabinni ham, kitobxonni ham ana shu muxitga olib kira oladi deb o'ylayman. Asardagi Husanning o'zi ixtiyori bilan onasiga yordam berish ilinjida qilayotgan mehnatlari zahiridagi tashvishi ham, Odilning bo'lsa mexrli qo'llardan yopilgan nonni sotib o'ziga ham qo'shi Hadicha xolaga ham foyda keltirish istagidagidagi harakatlari ham, qizchaning bo'lsa, nonlarni tezroq sotsamu uyga tezda ketsam degan majburiy maqsadlari ham pyesadagi kabi spektaklda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Keyingi ko'rinishlarni asosiy uchta katta ko'rinishga bo'lib olsak bo'ladi. Birinchi ko'rinishda Odilning xonadoni ta'sviri va bu uyda mexr axtarayotgan bolaning tashvishi ko'rsatib berilgan. Uning onasi Sayoxatxon ham Zulfiqor ham yaxshi bir kursining egalari. Ular ishxonada, ko'chada o'zlarini qanday tutishni biladilaru ammo farzandga qanday mexr berish kerak ekanligini bilmaydilar. Asarni o'qigan har qanday insonning qalbida bunday ota-onalarga nisbatan beixtiyor nafarat uyg'onadi. Pyesada Odilning e'tibor istab qilgan qaysarliklari ota-onaga tarsakidek urilganining guvohi bo'lamiz. Spektaklda esa rejissor bu voqeaning yechimini ham berib o'tadi ya'ni ona ishga bormay Odilni tinglaydi va o'z xatolarini anglagancha achchiq ko'z yosh to'kadi. Aynan shunday yechimni biz keyingi sahna qizcha bilan bog'liq bo'lgan sahnada ham kuzatishimiz mumkin. Dars qilish jonu dili bo'lgan qizchani turmushni yaxshilash maqsadida hammu ishlashi kerak degan o'y bilan onasi ya'ni Aqida non sotishga majburlaydi. Kundan - kunga hashamdan iborat bo'lgan to'ylarni ko'rib yuragiga g'ul-g'ula tushgan ayol eri Mo'minga ham bolalariga ham tinchlik bermaydi. Mo'minni bo'lsa ish kunidan dam olish kuni ko'p. Ana shu vaziyatda Aqida qizini ham ishlashga undaydi. Voqea yakunida esa non sotib kelishni Mo'min o'z zimmasiga oladi. Qizining dada oyimlarga ayting non sotishga yubormasinlar, nega jimsiz? nega doim jimsiz? degan noliqlari otaning qalbini uyg'otgandek bo'ladi. Uchinchi ko'rinish avvalgilardan biroz boshqacha. Oldingi ko'rinishlardagi nidolar ota-onaliga qaratilgan bo'lsa, bu ko'rinishda onasi orqali o'z akasiga ham qaysidir ma'nodagi injiqliklarni uchratamiz. Ona ikki egizak farzand Hasan- Husanlar bilan yolg'iz qolgan. Farzandlaridan Hasan ilm olishni, olim bo'lishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, Husan Hasanim yaxshi o'qiydi u olim bo'ladi deb Hasanning istaklarini qondirishda onasiga ko'maklashadi. Ona ham farrosh bo'lib ishlaydi, ham non yopib Husanga sotishga beradi. Har qancha harakat qilmasin Hasan uchun kam. U faqat o'zini o'yladi. Boshqalar esa uning

yaxshi yashashi uchun bir vositachidek. Shunday kunlarda Husan yoriladi. Uning hudbinligini, mahallada hech kim uni tanimasligini, qolganlar pulni bosib yotmaganligini aytib Hasanga tanbeh beradi. Hasan parvo qilmay ketadi va hovlida turgancha onasi bilan ukasining suhbatini eshitib qoladi. Suhbat ta'sir qilib o'zgaradi va ukasining o'qishida yordam beishini aytadi. Asarda bo'lsa bu voqeada Hasan o'zgarganini bildirmaydi. Sababi u olim bo'lmasa hech kim bo'la olmasligini yaxshi biladi. Shu boisdan ham u ikki barobar o'qishga majbur Husan esa ishlashga. Yosh tomoshabinlar teartida qo'yilgan variantda Hasan Husanlarning onasi emas, buvisi tarbiyalaydi deya ona emas buvi pesonaji kiritilgan. Voqealarning bu taxlid yechim topgani tomoshabinga ham tushunarli, ham ishonarli bo'lgan deb o'ylayman. Chunki tomosha zaliga kirgan tomoshabin voqealar yaxshilik bilan tugashining tarfdori. Menimcha bu asar asosidagi spektakl o'ziga xos uslub va mahorat bilan sahnalashtirilgan. Odil, Qizcha, Husan bilan birgama- birga o'zining borligini ko'rsatib qo'ymoq uchun hayqirgan tomoshabin albatta ularning natijasini ham ko'rishlari kerak. Pyesada ochiq-oydin aytilmagan, kechirim so'rashi kerak bo'lgan personajlar spektaklda qaysidir ma'noda qalblarini bo'shatishgan deyish mumkin. Shuni afasus bilan aytib o'tishimiz keraki bazi spektakllar aynan pyesaning o'zginasi. Dramaturg g'oyani, mavzuni badiiy jihatdan ko'rsa, rejissor uni sahnaviy variantini o'zi yaratishi kerak. Yozilgan tayyor asarni sahnaga ko'chirgan bilan tomosha bo'lib qolmaydi. Rejissorning aytmoqchi bo'lgan gapi, o'zining topilmasi bo'lishi kerak deb o'ylayman. Pyesani yaxshi tushunmay uni aslida nima haqida ekanligini to'liq anglamasdan turib spektakl sahnalashtirish juda qiyin masala. Tomoshabin teatrga ma'naviy ozuqa olish uchun kelar ekan, u to'la-to'kis yetkazilishi kerak. Ammo har qanday holatda ham asos bo'lib pyesa qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent ma'naviyat 2008yil.
2. Karimov I.A. Miliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. O'zbekiston. 2000yil.
3. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. Toshkent. yangi asr avlodi. 2010 yil. T. Xo'javev tarjimai.

4.O'zbek tili izohli lug'ari.4-jild.O'zbekiston milliy ensklopediyasi.Davlat ilmiy nashryoti.

5.IkromovI. Davr va teatr. O'zbekiston miliy ensklopediyasi. Davlat ilmiy nashryoti. 2009yil.

6.Internet sayti: ziyo.net.